https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ravshanova Sarvinoz Bahtiyorovna
“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOTLAR UNIVERSITETI
Iqtisodiyot fakulteti “Turizm va mehmondo’stlik” yo’nalishi
1-bosqich bakalavriat talabasi.

O’ZBEKISTON TURIZMINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

Anatatsiya. Bu maqoladan maqsadim O’zbekistondagi turizmini rivojlantirish yo’llari, duch kelayotkan qiyinchiliklari va jahondagi turizmi rivojlangan davlatlarni bu bo’yicha qilayotgan ishlari haqida to’liq ma’lumot berish.

Kalit so’zlar. Jahon turizmi, O’zbekiston turizmi, Turizm, Foyda, Muammolari, Iqtisodiyot.

Kirish.

Turizm har br davlat iqtisodiyotiga katta foyda keltiradigan sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O’zbekiston Markaziy Osiyodagi eng jozibador va turistik hududlardan biri hisoblanadi va O’zbekiston turistlarni yanada jalb qilishi, iqtisodiyotiga katta foyda olib kelishi uchun ohirgi 30 yilda juda ko’p ishlarni amalga oshirdi va oshirib kelmoqda. So’nggi yillarda turizm sohasi davlat siyosatini eng ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Vizalar soddalashtirilishi, yangi infratuzilmalarni barpo etilishi, xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilanishi O’zbekiston turizm jozibasini yanada kuchaytirgan omillardandir. Shu va shunga o’xshash ishlar davlat iqtisodiyotiga katta foyda keltirishi ko’zda tutilgan. Ayniqsa, jahon davlatlari bilan qilinayotkan hamkorlik ishlari aynan biz e’tibor qaratishimiz shart bo’lgan qism.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

1. O'ZBEKISTONDAGI TURIZM YO'NALISHLARI VA FOYDALARI.

Men shuni aytib o'tib ketishim kerakki, har bir turizm yo'nalishi O'zbekiston iqtisodiyotiga yaxshigina foyda keltiradi.

Masalan;

1. Madaniy Turizm: Hech kimga sir emaski, O'zbekiston o'zining boy madaniy-tarixiy merosi, betakror me'morchiligi va san'ati bilan jozibali. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Urganch, Termiz, Qoraqalpog'istonning qadimiy tarixiy obidalari O'zbekiston tarixiy-ma'rifiy turizmining asosiy poydevori hisoblanadi. Mamlakatimizda 7000 dan ortiq madaniy meros obyektlarijoylashgan bo'lib, ularning aksariyati YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yhatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivaning tarixiy markazlari – bu va yana ko'p narsalar O'zbekistonning jahon turizm bozori maydonidagi ulkan salohiyatidan dalolatdir. Mamlakatimizning eng qadimiy shaharlariga sayohat, o'zining betakror me'morchiligi, madaniy meros obidalari, qadimiy do'konlari va hunarmandchilik ustaxonalari bilan o'ziga jalb etuvchi sayohat har bir sayohatchida yorqin va unitilmas taassurotlarni qoldirishi shubhasiz. Bunga misol qilib esa, turistlar eng ko'p tashrif buyuradigan muzeylarni misol qilib keltirish mumkin: O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston davlat san'at muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, I.V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat san'at muzeyi va boshqalarni misol qilib keltirish maqsadga muvofiq bo'ladi.
2. Ekoturizm: BMT Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) ma'lumotiga ko'ra, ekoturizm jahon bozorining 7 foizini tashkil qiladi va bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda. O'zbekistonning Zarafshon, Hisor, Surxon, Ugom-Chotqol tog' tizmalari va Qizilqum kabi tabiiy hududlari ekoturizm uchun juda katta salohiyatga ega hisoblanadi. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) ekoturizmni shunday ta'riflaydi: " Ekoturizm – bu tabiiy hududlarga qilinadigan mas'uliyatli sayohat bo'lib, u atrof – muhitni muhofaza qilish va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mahalliy aholi farovonligini yaxshilashga ko'maklashadi. Yana shuni qo'simcha qilib o'tib ketmoqchimanki, O'zbekiston bu yo'nalishdan 2023 – yilda 6.6 million sayyohdan 2.1 milliard dollar foyda olgan.

3. Ziyorat turizm: Falsafiy savollarga javob olish uchun ayrimlar butun umrini sarflaydi, kimlardir, afsuski bu javoblarni hech qachon topolmaydi, boshqalar esa shunchaki bu savollariga to'g'ri aniq javob olish uchun ziyoratga boradi va bu tushunib turganingizdek, "ZIYORAT TURIZM" qatoriga kiradi. Va bu shunchaki sayohat emas, bu o'z-o'zini anglash, ma'naviy ma'rifatga umid qilish, iltijo va ibodatlarni yetkazish, iymonning asl manbasi bilan yuzlanish, e'tiqod va hayotning ma'nosini anglash uchun imkoniyatdir. Ziyorat - bu avliyo orqali Yaratganga murojaat qilish, ko'ngil va qalb xotirjamligiga erishish, avliyolik haqiqatni anglash, yolg'izlik va poklanish yo'lidan o'tish imkoniyatidir. Eng qimmatbaho yodgorliklarga e'tibor qaratsak, YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan.ular orasida Islom olamida Muborak Buxoro ma'nosini anglatuvchi Buxoroi-Sharif deb nomlangan Buxoro shahri. Ko'plab bebaho yodgorliklarga ega Samarqand shahri. Amir Temurning vatani hisoblanmish Shahrisabz shahri hozirgi kunda turistlarni eng ko'p qabul qiluvchi shaharlar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, Nasroniylik Obyektlari, Buddaviylik Merosi va shunga o'xshash tarixiy qadamjolar turistlarni e'tiborini jalb qilgan. Bu yo'nalaishdan keladigan foydaga nazar tashlasak, 2022 – yilda ziyorat turizmidan tahminan 125.6 million AQSH dollari miqdorida foyda olingan. 2024 – yilda 8.2 million turist 2025 – yilning birinchi yetti oyida (Yanvar – Iyul) 6.3 million xorijiy turist tashrif buyurgan va u o'tgan yilga nisbatan 48.9% ga ko'p.
4. Tibbiy Turizm: Tibbiy turizm – davolanish maqsadida chet elga va o'z yurti bo'ylab sayohat qilish amaliyotidir. Ilgari bu atama asosan kam rivojlangan mamlakatlardan yuqori rivojlangan mamlakatlardagi yirik tibbiy markazlariga, o'z yurtida mavjud bo'lmagan davolanish usullarini qo'llash uchun boradigan bemorlarni nazarda tutardi. Ammo so'nggi yillarda bu tushuncha rivojlangan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

mamlakatlardan arzonroq tibbiy xizmatlar olish maqsadida rivojlanayotgan davlatlarga sayohat qiluvchilar uchun ham qo'llanilmoqda. Agar bemor o'z tibbiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida chet elga sayohat qilsa, tibbiy xizmatlarning importi tibbiyot turizmi deb hisoblanadi. Kirish tibbiy turizmi – bu tibbiy xizmatlarni eksport qilish, ya'ni chet ellik bemorlarni tibbiy yordam ko'rsatish uchun jalb qilish. Bu yo'nalishdan kelgan foydaga qaraydigan bo'lsak, 2023 – yil olti oy davomidi O'zbekistonga tahminan 32.200 chet ellik bemor kelgan, 2024 – yilning 8 oyi davomida tahminan 74.700 chet ellik kelgan va bu o'tgan yilga qaraganda 84% o'sishni ko'rsatadi va bundan kelgan umumiy daromadi tahminan 2.7 milliard $. 2025 – yil ohirgi olti oyida taminan 48.500 chet ellik davolanish maqsadida kelgan.

5. Gastro Turizm (kulinar turizm) : Gastronomik turizm yoki oshxona turizmi – turizmning asosiy turlaridan biri bo'lib, asosiy maqsadi, sayyohlarni ma'lum bir mamlakatga , sayohat qilish asnosida, o'sha davlatning milliy oshxonasi va ovqatlanish ma'daniyati bilan ham yaqindan tanishishdir. Gastronomik sayyoh, birinchi navbatda, madaniyatning ajralmas qismi hisoblangan, milliy va an'anaviy taomlarni tayyorlash jarayoni, dasturxonga tortish usullari, ovqatlanish tartibi va pozitsiyalarini ko'rish va bilish barobarida, sayohat qilayotgan davlatining tarixini, iqtisodiyoti, davlat siyosati hamda mahalliy aholining e'tiqodlarini o'rganadi. Shuni ham aytish joizki, keying yillarda bu soha O'zbekistonda ham yaxshi su'ratlarda rivojlanib bormoqda. Daromadlarga keladigan bo'lsak, 2025 – yilning ohirgi sakkiz oyida mamlakat turizm xizmatlari hajmi 2.2 trillion so'm (182.4 million $) ga yetgan.

2. TURIZMNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI.

(Jahon va O'zbekiston misolida)

Hammaga ma'lumki, Turizm sohasida dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiyoti uchun foyda keltiradigan sohaardan biri hisoblanadi. Xususan O'zbekiston ham so'nggi yillarda bu sohadan katta foyda olib kelmoqda va o'z

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

navbatida bu sohani rivojlantirish uchun rivojlangan davlatlar bilan yaxshi hamkorlikni olib boryapti.

Buni misollar bilan keltradigan bo'lsam:

1. Rossiya Federatsiyasi : 2025 – yilda ikki davlat hukumatlari turizm sohasida dasturlar va investitsiyalarni kengaytirish bo'yicha bo'yicha hamkorlikni muhokama qildi. Bu hamkorlik "Rossiyada O'zbekiston turizm yili" kabi tadbirlar, sayyoh almashinuvi va sarmoyaviy loyihalarni o'z ichiga oladi.

2. Turkiya Respublikasi : 2025 – yilda O'zbekiston va Turkiya o'rtasida turizm sohasida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan kelishuv va harakar rejasi imzolangan. Maqsad – aviatsiya aloqalarini kengaytirish, turist oqimini oshirish va ikki tamonlama turistik almashinuvni rivojlantirish.

3. Ozarbayjon Respublikasi : 2025 – yilda Ozarbayjon va O'zbekiston turizm bo'yicha hamkorlikni kengaytirish bo'yicha memorandum imzolangan. " Silk Road Tours " kabi loyihalar doirasida birgalikda sayohat yo'llari yaratilmoqda.

4. Qozog'iston Respublikasi : O'zbekiston bilan Qozog'iston turizm sohasi bo'yicha hamkorlikni kengaytirmoqda: qo'shma sayohat marshrutlari, investitsiyalar va tajriba almashinuvi ko'rsatilmoqda.

Nima uchun bu davlatlar muhim?!

Rossiya va Turkiya – O'zbekiston uchun asosiy sayyoh keluvchilar manbai; ularni jalb qilish orqali turist oqimi va daomad oshadi.

Ozarbayjon bilan " Silk Road " yo'nalishi bo'yicha yangi sayohat paketlari yaratish O'zbekiston turizm mahsulotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Qozog'iston va atrofiy davlatlar bilan hamkorlik – mintaqaviy turizmni rivojlantirish, chegara-o'tishlar, qo'shma yo'nalishlar va umumiy infratuzilma doirasida sarmoyalarni jalb qilish imkoniyati.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3.O’ZBEKISTONNING IMKONIYATLARI.

O‘zbekiston bugungi kunda turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Avvalo, mamlakatning boy tarixiy merosi, qadimiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar va Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan noyob obidalar turizm salohiyatini oshirib beradi. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarning YuNESKO merosi ro‘yxatiga kiritilganligi O‘zbekistonni jahon turizm xaritasida alohida ajratib turadi.Bundan tashqari, mamlakatning tabiiy resurslari ham ekoturizm, agroturizm, tog‘ turizmi kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Chimyon, Zarafshon, Surxon vohasi, Qoraqalpog‘istondagi muqim manzaralar xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda.Shuningdek, hukumat tomonidan turizmni qo‘llab-quvvatlash, vizasiz rejimni kengaytirish, aerotarmoqni modernizatsiya qilish va yangi mehmonxonalar qurish kabi islohotlar turizm sektoriga katta turtki bermoqda. Natijada mamlakatga kelayotgan xorijiy turistlar soni va turizm daromadlari yildan-yilga oshib bormoqda.Umuman olganda, O‘zbekistonning geografik joylashuvi, tarixiy boyliklari, tabiiy go‘zalliklari va davlat tomonidan yaratilayotgan qulay sharoitlar uning turizm sohasidagi eng muhim imkoniyatlarini tashkil etadi.

XULOSA :

Bilib turganimizdek hozirgi globallashuv davrida, mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. O’zbekistonning o’ziga xos tabiiy manzaralari, boy madaniy merosi va xalqaro hamkorlikdagi faol ishtiroklari turizm sohasining yanada rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, turizm mamlakatning iqtisodiy o’sishi, xalqaro obro’si va ahli farovonligi uchun muhim strategik yo’nalish hisoblanadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

MANBALAR:

1. Karimov, A. O‘zbekiston turizmi rivoji. Toshkent: “Fan”, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi rasmiy sayti: www.uzbektourism.uz

3. “Statistika qo‘mitasi” rasmiy ma’lumotlari: www.stat.uz

4. Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO) hisobotlari, 2023–2024 y.

5. “O‘zbekiston geografiyasi” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent, 2021.

6. „Russia - Medical Tourism Index" [(en). Medical Tourism Index. 2018-yil 17-noyabrda asl nusxadan arxivlangan &. Qaraldi: 2018-yil 17-noyabr.

7. T „New Study Reveals Wellness Tourism" [. SRI International (2013-yil 31-oktyabr).

8. World Food Travel Association &Video on the history of food tourism & (Wayback Machine saytida)

9. = https://yuz.uz Uzbekistan and Turkey strengthen cooperation in the field of tourism